

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI AHOЛИ TURMUSH DARAJASINING BELGILASHDAGI AHAMIYATI

B.N. Muydinov, i.f.n., dots.,

*University of economics and pedagogy
NOTM O'quv ishlari bo'yicha prorektori*

N.I.Sayidxodjaeva,

*University of economics and pedagogy NOTM
"Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratish orqali aholi daromadlarining ortishi natijasida turmush darajasining yaxshilanishi hamda jamiyat farovonligiga ijobiy ta'sirini ochib berishga bag'ishlangan. Maqolada bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida turli mulk shakllarida daromad tushunchasi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini orttirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, aholi bandligi, monostruktura, polistruktura, aholi daromadlari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, taqsimot qonuni, samaradorlik, bozordagi talab, milliy daromad, insonparvarlik tamoyili, qonuniylik, ijtimoiy himoya.

Аннотация. Статья посвящена повышению уровня жизни и положительному влиянию на благосостояние общества в результате увеличения доходов населения за счет создания широких возможностей для развития малого бизнеса и частного предпринимательства. В статье раскрыто понятие доходов от различных форм собственности и пути повышения благосостояния населения за счет развития малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях либерализации рыночной экономики.

Ключевые слова: Малый бизнес, частное предпринимательство, рыночная экономика, занятость населения, моноструктура, полиструктура, доходы населения, материальное и нематериальное производство, закон распределения, эффективность, рыночный спрос, национальный доход, гуманитарный принцип, законность, социальная защита.

Annotation. The article is devoted to improving living standards and the positive impact on the well-being of society as a result of increasing incomes of the population by creating ample opportunities for the development of small businesses and private entrepreneurship. The article reveals the concept of income from various forms of ownership and ways to improve the well-being of the population through the development of small businesses and private entrepreneurship in the conditions of liberalization of a market economy.

Key words: Small business, private entrepreneurship, market economy, employment, monostructure, polystructure, income of the population, material and intangible production, distribution law, efficiency, market demand, national income, humanitarian principle, legality, social protection.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, kasanachilik sohalarini barqaror rivojlantirish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilib, ular aholi turmush darajasining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. E'tirof etish lozimki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, turmush farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ta'sirchan zaxiralaridan ekanligi ham tobora yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorida ilg'or tajribalarni qo'llash, oilaviy biznesni rivojlantirish, hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini takomillashtirish, xususan sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bularning barchasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochadigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini tahminlashga imkon beradi. Natijada aholi daromadlarining oshishi, aholi turmush darajasi va farovonligi yaxshilanishiga olib keladi. Demak kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi aholi daromadlarining hajmi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Biz aholi daromadlariga tushuncha berishdan oldin, umuman daromad tushunchasini aniqlashtirib olsak. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida daromadlar tushunchasining ahamiyati yanada ortdi, chunki quyidagi holatlar daromadlar bilan bevosita bog'liq:

- Iqtisodiyotning umumiy holati va aholining turmush darajasi;
- Ijtimoiy va soliq siyosatini ishlab chiqish;
- Ichki imkoniyatlarni jalb qilish, investitsion jarayonlarni kengaytirish imkoniyatlarini baholash.

Yuqoridagi maqsadlarda foydalanish uchun daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar iqtisodiy jarayonlarning bog'liq holatlarini xarakterlovchi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'lanishi lozim: masalan, moliyaviy imkoniyatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar, samaradorlik ko'rsatkichlari bilan va h.k.

Aytish lozimki, daromadlarga ta'rif berish buxgalteriya hisobi amaliyotida qo'llaniladigan ta'rif bilan to'g'ri kelmaydi. Gap shundaki, umuman buxgalteriya hisobi, shu jumladan, daromad kategoriyasi haqidagi nizom iqtisod va moliya vazirligi

tomonidan soliqqa tortish darajasini aniqlash va boshqa masalarni yechish maqsadida ishlab chiqiladi. Shuning uchun daromadlarning makro va mikrodarajadagi ta'riflari bir biridan farq qiladi va ular orasida to'g'ridan to'g'ri bog'lanish bo'lmaydi. Makrodarajadagi daromadni to'g'ridan to'g'ri mikrodarajadagi daromadlarga qo'shib aniqlab bo'lmaydi. Lekin daromadlarni bunday ikki makro va mikrodarajada aniqlashdan iqtisodiy tahlil jarayonida foydalanish mumkin va ular bir birini to'ldiradi.

Masalan, makroiqtisodiy darajadagi daromad haqidagi ma'lumotlar asosan xo'jalik yurituvchi subg'ektlarni iqtisodiy jarayonlardagi holatlarni o'rganish uchun va yana fiskal siyosatni hal etishda qo'llaniladi. Makrodarajadagi daromad milliy daromad deb atalib, undan iste'mol va jamg'arish siyosatini ishlab chiqishda va juda ko'p ijtimoiy iqtisodiy masalalarini hal qilishda foydalaniladi.

Shunisi qiziqki, iqtisodiy ta'limotlarda daromad tushunchasi haqidagi ta'limot ancha murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Faqat XX asr davomida qator iqtisodchi va statistiklar tomonidan berilgan daromad tushunchasi ta'riflari bir necha bor o'zgardi. Masalan, I.Fisher daromad tushunchasini oxirgi foydalanish bilan bog'laydi. Taniqli gollandiyalik statis F.Boss o'zining "Milliy hisoblardagi doimiy tahlil"(1989 y) nomli asarida daromad tushunchasini oxirgi istehmol summasi va kapital aktivlar zaxirasining sof o'sishi sifatida ta'riflagan. Lekin uning o'zi shuni ham tan oladiki, bu ta'rifni yana boshqa tomonlariga aniqlik kiritish lozim deb hisoblagan. Bu masala bo'yicha ham iqtisodiy adabiyotlarda turli xil fikrlar mavjud. Masalan, ko'p ishlarda kapitalga barcha chegaraga ega bo'lgan resurslar yig'indisi sifatida qaraladi. Lekin ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, amalda bu ta'rifni qo'llash ancha qiyinchiliklarga uchraydi, chunki chegaralangan resurslarning bahosi haqidagi ma'lumotlar yo'q. Shuning uchun kapitalni bozorda sotilishi mumkin bo'lgan (yoki bozor bahosiga ega bo'lgan) resurslar yig'indisi sifatida qaraladi. Taniqli amerikalik iqtisodchi Pol Samuel'son kapital tushunchasini, ishlab chiqarish natijasi sifatida yoki ishlab chiqarilgan resurslar sifatida qaraydi. Samuel'son fikriga ko'ra, tabiiy qazilmalar zaxiralari va boshqa ishlab chiqarilgan aktivlarga qachonki mehnat ta'sir ko'rsatsa, kapital tusini oladi.

Daromad haqidagi tushunchaning nihoyatda og'ir xarakterga ega ekanligini, shu sohada dunyodagi taniqli bo'lgan ingliz olimi iqtisodchi Dj. Xiks ham tan oladi. U o'zining "Qiymat va kapital" nomli asarida ko'p taniqli mualliflar bir birini o'rgangan, shuningdek, o'zlarining fikrlarini keltirganlar va ularda jamlash va daromad tushunchalariga har xil tahrif berganlar, bir biriga qarama qarshi va qoniqarsiz fikrlar bo'lganlarini e'tirof etgan va umuman, ma'lum bo'lgan daromad va jamlash tushunchalari mantiqiy kategoriyalar bo'lmay, balki amaliyotda biroz yaqinlashgan, biznesmenlar uchun amaliy masalalarni to'g'ri hal qilishga qaratilgan tushincha deb atagan. Shu fikrga taniqli nemis iqtisodchisi va statis professor P. Fon Der Lippe ham

qo'shiladi. Uning fikricha, daromadning ta'rifi tahlil va amaliy masalalarning hal qilish maqsadiga bog'liq bo'lib, daromad- xo'jalik yurituvchi subg'ektlarga doim tushib turadigan pul daromadlari summasi hisoblanadi va ular pulning talabiga ta'sir ko'rsatadi. U binobarin, natural formada tushgan daromadlarni o'z ichiga olmaydi.

BMTning 1993 yildagi qabul qilgan yangi MHTga asosan daromad ko'rsatkichlari tizimi Dj.Xiks ta'limotiga asoslanadi. Uning mohiyati quyidagicha: daromad bu eng katta summa bo'lib, uni ma'lum davr davomida istemol uchun ishlatish mumkin, u holda davr oxiridagi va davr boshidagi kapital hajmi o'zgarmay qoladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, daromad ko'rsatkichlari insonlarni istemol uchun ishlatishi mumkin bo'lgan summani, ya'ni hech qanday kambag'allanishga yo'l qo'ymagan holda ishlatishi mumkin bo'lgan summani anglatadi. O'z fikrini yanada rivojlantirib, Dj.Xiks nazariy tahlil uchun daromadlarning ikki xil kategoriyasini keltiradi. Birinchi kategoriya doimiy, avvaldan ko'rish mumkin bo'lgan tushinchalar oqimi, ikkinchisi amaldagi tushunchalar oqimi. Dj.Xiks fikricha, tahlil qilish uchun ko'proq darajada xo'jalik yurituvchi subg'ektlarning xulqini tushuntirib beradi. Uni olish uchun ikkinchi kategoriyadan avvalda ko'rilmagan, favqulodda tushumlarni ayirish kerak, jumladan, inflyatsiya natijasida aktivlar hajmining ortishi. Shssssunday qilib, Dj.Xiksning daromad xaqidagi fikridan quyidagi bir necha aniq xulosalarni olish mumkin:

- Birinchidan, har qanday pul tushumi ham daromad emas. Albatta, ishlab chiqarishda foydalangan ishlab chiqarish vositalarining qiymatini o'rni to'ldirish uchun kelib tushgan pullar daromad bo'lib hisoblanmaydi.

- Ikkinchidan, jamlash pul summalarini, banklardagi depozitlarni va boshqa moliyaviy aktivlarni (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar) ortishida tenglashtirib bo'lmaydi, chunki, moliyaviy aktivlar formasini o'zgartirishi natijasida yoki moliyaviy majburiyatlar olish natijasida (jamlash natijasida emas) ham moliyaviy aktivlar hajmi ortishi mumkin. Masalan, qarz olish, aktsiyalar va material aktivlar sotish natijasida ham pulning hajmi ortishi mumkin. Boshqa tomondan, saqlanishdagi pullar hisobidan material aktivlar (erni, kvartirani) sotib olish ham pul hajmini kamaytiradi.

- Uchinchidan, favqulodda sabablar bilan kapital hajmining ortishi, masalan, inflyatsiya tufayli yoki tashqi sabablar bilan (yaqin joyda temir yo'llar o'tkazish tufayli) yoki yer qiymatining ortishi ham daromad bo'lib hisoblanmaydi.

Bizni fikrimizcha, daromad faoliyat turiga qarab turlicha buladi. Masalan, savdo korxonalarida daromad, sotilgan maxsulotdan sotilgan maxsulotni sotib olish bahosini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Yani, bir dona kastyum-shimni sotib olish bahosi 600 ming so'm, huddi shu kastyum-shimni sotish bahosi 700 ming so'm. Bu erda daromad 100 ming so'mni tashkil qilmoqda. Lekin 100 ming so'm bu daromad, foyda emas, foyda bo'lishi uchun sotilgan maxsulotni olib kelish, sotish xarajatlarini chegirib tashlangandan qolgan qismi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida esa ishlab chiqarilgan maxsulotni sotishdan tushgan tushum daromad bo'lib hisoblanadi. Masalan tikuvchilik korxonasida ishlab chiqarilgan 10 dona kastyum-shim har biri 600 ming so'mdan 6 mln so'mga sotildi. Bu yerda 6 mln so'm daromad bo'lib hisoblanadi. Lekin 6 mln so'm foyda emas. Foyda 6 mln so'mdan kastyum – shim ishlab chiqarish uchun ketgan barcha xarajatlarni chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Soliq nuqtai nazaridan olinganda xarajatlar 2 guruxga ajratiladi. Yahni maxsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, davr xarajatlar. Lekin ishlab chiqaruvchi nuqtai nazaridan qaraganda xarajatlar guruxlarga ajratilmaydi. Barcha xarajatlar bu- xarajat hisoblanadi.

Yuksak ishlab chiqarish iqtisodiyotida insonparvarlik tamoyillari amal qilishi uchun moddiy zamin hozirlaydi. Ammo farovonlikni ta'minlashdek insoniylik qoidasi amal qilishi uchun jamiyatning iqtisodiy tizimida ham sifat o'zgarishlari bo'lishi shart. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining bir qator tamoyillari azaldan rivojlanib kelgan, ular yovvoyi iqtisodiyot bosqichida ham mavjud bo'lgan, lekin ular iqtisodiyotdagi monostruktura tufayli insoniylikni yuzaga keltira olmagan. Yovvoyi bozor iqtisodiyotidan farqli tarzda madaniylashgan bozor iqtisodiyotida daromadlarni taqsimlashda adolatli tarzda ish ko'riladi. Yovvoyi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi monostrukturaviy tizimda (bir mulk hukmronligiga asoslangan) madaniylashgan bozor iqtisodiyotida polistrukturali tizimda (ko'p mulkchilikka asoslangan) mulk ozchilik qo'lidan ko'pchilik qo'lga o'tadi. Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti davrida daromadlarning taqsimlanishi iqtisodiy tanlov asosida olib boriladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, taqsimotning ikkita turi mavjud:

1. Tekis taqsimot.
2. Iqtisodiy tanlov asosidagi taqsimot.

Bunda har kim o'zining YaIMni yaratishida qo'shgan hissasiga qarab o'z ulushini oladi.

Monostrukturaga xos bulgan bir mulk hukmronligi ishlab chiqarishni mulk egasi manfaatiga bog'lab qo'ygan. Mulkning demokratiyalashuvi mulkdorlar doirasini kengaytiradi, xilma-xil mulklar paydo bulib, ular muvozanat saqlashga xizmat kiladi. Muhimi – mulksizlarning mulkdorlarga aylanishidir. Yovvoyi iqtisodiyotda mulk ozchilik qo'lida to'plangani holda, ko'pchilik mehnat ahlining o'z ish kuchidan boshqa mulki bo'lmaydi.

Har bir kishi istehmol etadigan buyumlarning ekvivalenti bo'lgan pul daromadi – taqsimot kategoriyasidir. Bozor xo'jaligida taqsimotning o'z tamoyillari borki, ular resurslarning mahsulot va xizmatlar yaratishdagi hissasini hisobga oladi. Kapital, tadbirkorlik qobiliyati, ishchi kuchi va erdan iborat resurslar egalari o'z resurslarining ishlab chiqarish omili sifatida iqtisodiyotga qo'shgan hissasiga qarab daromad oladilar.

Daromad olish uchun resurslarning faqat moddiy sohada amal qilishi shart emas, ular nomoddiy ishlab chiqarishda, turli xizmatlar yaratishda ishtirok etsalar ham, ularning egalari daromad olishga haqlidir, chunki bu bilan ham jamiyat ehtiyoji qondiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga xos taqsimot qonuniga ko'ra moddiy nehmalar va xizmatlar resurslar bergan pirovard natijasiga qarab, ularning egalari o'rtasida taqsimlanadi. Aytilgan taqsimot qonunini bozor iqtisodiyoti uchun ijtimoiy adolat tamoyillari belgilaydi. Ular daromadni cheklashni inkor etadilar, ularga binoan daromadlar har bir ishlab chiqarish omili samarasiga qarab, cheksiz o'sib borishi mumkin. Taqsimot qonuniga binoan ishchi kuchi sohibi ish haqi oladi, kapital egasi foyda, pul egasi foiz va dividend oladi, er egasi renta oladi, menejer ham foyda, ham ish haqi oladi, o'tmishdagi mehnat va xizmatlari uchun pensiya to'lanadi.

Taqsimotning bozor tamoyillari hukmron bo'lsada, jamiyatda uning nobozor qoidalari ham amal qiladi. Nogironlar, kambag'allar, boshpanasizlarga yordam ko'rsatish taqsimotdagi ijtimoiy xayr-ehson tamoyili bo'lib, uning bozor qonunlariga aloqasi yo'q, balki jamiyatdagi insoniylik munosabatlarining mahsuli hisoblanadi. Bozor taqsimotiga ekvivalentlik, ya'ni omillar bergan natijaga monand ravishda daromad ajratish xos, ammo noekvivalentlik taqsimot ham mavjud. Davlat daromadning bir qismini o'z ixtiyoriga olganda taqsimlash munosabati yuz beradi, ammo, ekvivalentlik bo'lmaydi, chunki davlat daromaddagi o'z hissasini iqtisodiy o'sishdagi xizmatlariga teng miqdorda emas, balki umumdavlat talab-ehtiyojini qondirish zarurligi uchun oladi.

Resurs egalarining daromadi ularning ishlatilish samaradorligiga bog'liq va uning mezonini bozor aniqlaydi. Samaradorlik mezoni esa bozor talabining qondirilishidir. Resurslar yordamida talabgir tovar qanchalik ko'p yaratilsa, shunchalik pul ko'p topiladi, shunga binoan daromadlar ham ko'payadi. Resurslar bozor nuqtai nazaridan samarali ishlatilmasa, tabiiyki daromad kelmaydi. Masalan, ishchi qanchalik unumli ishlamasin, u yaratgan tovar bozorda o'tmay qolsa, yaxshi daromad ko'ra olmaydi. Daromad bozorning resurslar sarfini naqadar ko'p tan olishiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti qoidalaridan biri, bozordagi talabga ishlash, uni qondirishdan iborat. Shundagina pul topish, boylik orttirish mumkin. Talab-ehtiyojni qondirishdek yo'nalishda ishlash tadbirkorlikning muhim sharti, xususiy manfaatini yuzaga chiqarish obro'-ehtiborli bo'lish vositasi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan jamiyatda nufuzli iqtisodiy faoliyat qonuni kelib chiqadi. Bu qonunga ko'ra, iqtisodiy faollik negizida pul topib, boy bo'lish emas, balki jamiyatda nufuzli, obro'-ehtiborli bo'lish, o'z nufuzi bilan nom chiqarish va shu yo'lda ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa bilishga intilish maqsadi yotadi.

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik surhatlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez surhatlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Aholi daromadlari – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va istehmol, jamg'arma, turli yig'im va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir.

Aholi daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmog'i sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy tuzilishi ham takomillashib boradi.

Nufuzli iqtisodiyot qoidalari qanchalik keng amal qilsa, shunchalik ommaviy farovonlik yuz beradi. Qaysiki jamiyat fuqarosi to'q, boy bo'lsa, shu jamiyat boy va istiqbolli jamiyat hisoblanadi.

Taqsimotning bozor usuliga ko'ra, xar bir kishining daromadi uning tovarlar va xizmatlar yaratishga qo'shgan xissasiga teng buladi. Bunday daromad bozor daromadi deb yuritiladi. Ammo taqsimotdagi insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqadigan nobozor daromadi xam bo'lib, u ishlab topilmay, balki yordam shaklida muxtojlariga beriladi. Bu tamoyil, birinchidan, iqtisodiy imkoniyatlarni, ikkinchidan, nochor axolining muxtojligini xisobga oladi. Muxtojlar ishlamas yoki kam ishlasalarda, davlat, jamoat tashkilotlari va tadbirkorlar tomonidan berilgan nafaqaga ega bo'ladilar.

Xulosa. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi. Qo'shimcha ish o'rinlarida aholining ish bilan band bo'lmagan qismi ishlashi natijasida, ularni daromad olish imkoniyati yaratiladi. Daromad olishlari esa turmush darajasini yaxshilanishiga hizmat qiladi. Bundan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi o'zimizda maxsulot ishlab chiqarishni rivojlanishiga, xizmatlar sifatini yaxshilanishiga olib keladi. O'zimizda maxsulot ishlab chiqarishni rivojlanishi chet eldan qimmat narxga sotib olanayotgan mahsulotning o'rniga o'zimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotib olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'zimizda ishlab chiqarilgan arzon va sifatli mahsulotni sotib olish orqali aholi turmush darajasini ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subhektlarini rivojlanib borishi natijasida ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar soni va sifatini ortib borishi esa aholi turmush farovonligini ortishiga xizmat qiladi deb bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.:Mehnat, 2011.
2. Do'stjonov T.D., Salaev S.K. "Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent.: Iqtisodiyot-moliya, 2006. - 320 b.
3. Mirziyoev SH.M. va boshq. "O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlikning rivojlanishi". - T: Universitet, 1994. – 74 b.
4. Salaev S.K. "Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida kichik va o'rta biznes: muammolar, tahlillar va istiqbollar". -Toshkent.: Fan, 2002. – 128 b.
5. I.A.Karimov. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish xisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustivor vazifamizdir."Xalq so'zi gazetasi", 2015 yil 17 yanvarg'./
6. "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning amaliy asoslari". - Toshkent.: TITP, OSCE, 2004. - 12-17 betlar.
7. O'lmasov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. -T.: SHarq, 2006. – 386 b.
8. Qosimova M.S. va boshqalar. "Kichik biznesni boshqarish". -Toshkent.: O'qituvchi, 2003. - 29-33 betlar.